

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

**SPORT TERMA JAMOALARI
TO'G'RISIDA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent - 2025

Sport terma jamoalari to'g'risida uslubiy qo'llanma
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, "Adolat" milliy
huquqiy axborot markazi, – T. 2025 y. – 15 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma sport terma jamoalari faoliyatini tashkil etish, sportchilarni tanlab olish, ro'yxatga olish, tayyorlash, rag'batlantirish, shuningdek, ularni moddiy-texnik va tibbiy ta'minlash jarayonlariga oid tartib-taomillarni sodda va tushunarli tarzda bayon qilishga qaratilgan. Qo'llanmada sport sohasi vakillari, davlat organlari, federatsiyalar va boshqa mas'ul tuzilmalarning o'zaro hamkorlik mexanizmlari yoritilgan bo'lib, sport terma jamoalarining tizimli va samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur hujjat sport sohasidagi mutaxassislar, federatsiyalar vakillari, sport tashkilotlari rahbarlari hamda keng jamoatchilik uchun metodik qo'llanma sifatida mo'ljallangan.

Mazkur uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar	4
Umumiy qoidalar.....	5
Sport terma jamoalarini shakllantirishning maqsadi, vazifalari va tartibi	8
Sport terma jamoalari uchun shart-sharoitlarni tashkil etish.....	10
Sport terma jamoalari a'zolarining natijalarini hisobga olish va ularni rag'batlantirish.....	13
Ilovalar.....	14

Sport terma jamoalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 27-apreldagi 121-sonli "Terma jamoalar hamda ularning zaxirasini sport musobaqalariga tayyorlashni, shuningdek ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori



Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi "Sport terma jamoalari to'g'risidagi nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 173-son qarori



UMUMIY QOIDALAR

Qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi



Jismoniy tarbiya-sport tashkiloti — faoliyatning asosiy turi sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki boshqa yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi



Sport musobaqasi — sportchilar o'rtasida yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport dissiplinalari) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan bellashuv;



Sport tadbirlari — sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar;



Ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari — aholini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishga va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar;



Sport turi — jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyat turi bo'lib, u insonning sport musobaqalariga o'ziga xos tarzda tayyorgarlik ko'rishi bilan ajralib turadi, sport musobaqalarini o'tkazish va ularda ishtirok etishga doir talablar, tartib va shartlar belgilanadigan qoidalar, nizomga (reglamentga) ega bo'ladi;



O'quv-mashq yig'inlari — sportchilarni sport musobaqalariga va ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlariga tayyorlash va ularda ishtirok etish, shuningdek ushbu tadbirlardan keyin tiklash maqsadida sportchilarning sport mahoratini oshirishga yo'naltirilgan, sport yo'nalishiga, pedagogik va tarbiyaviy yo'sindagi tashkil etilgan tadbirlar;



Sportchi — tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs; Oldingi tahrirga qarang.



Trener — trenerlik faoliyati bo'yicha malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan yoki ta'lim muassasalarining sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishini bitirgan (bunda bitiruvchi tegishli sport turi bo'yicha trener lavozimiga ishga qabul qilinganiga uch yildan oshmagan bo'lishi lozim), shuningdek, o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs;



O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari — xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish hamda ularda O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish uchun turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislar jamoalari;



Sport terma jamoalari — turli yosh guruhlariga tegishli sportchilar, trenerlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqa mutaxassislar, tibbiyot mutaxassislari hamda boshqa mutaxassislardan iborat bo'lgan, musobaqalarga hamda ommaviy-jismoniy tarbiya tadbirlariga tayyorlanish va ularda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida qatnashish maqsadida tashkil etiladigan turli tashkilotlarning jamoalari (shu jumladan O'zbekiston Respublikasining sport terma jamoalari);



Trenerlar kengashi — sport turlari bo'yicha bosh (katta) trenerlar va trenerlar, boshqa yetakchi va nufuzli trenerlar, vrachlar, kompleks ilmiy guruhlarning rahbarlari va boshqa mutaxassislaridan iborat bo'lgan, sport federatsiyalari (uyushmalari) va sport turlarini rivojlantirish respublika markazlarida tashkil etiladigan sportchilarning sport, pedagogik va tarbiyaviy faoliyatini tartibga solib boruvchi kollegial organ.

SPORT TERMA JAMOALARINI SHAKLLANTIRISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARTIBI

Quyidagilar sport terma jamoalarini va ularning zaxirasini shakllantirishning asosiy maqsadlari va vazifalari hisoblanadi:



O'zbekiston Respublikasi nufuzini mustahkamlash uchun **respublika va xalqaro sport arenalarida yuqori o'rinlarni** egallash;

Sport turlari bo'yicha sport musobaqalari yakunlariga ko'ra yuqori sport natijalariga erishgan **sportchilar, trenerlar va boshqa mutaxassislardan sport terma jamoalarini va ularning zaxirasini shakllantirish;**



Yuqori malakali sportchilarni **tayyorlash, ularni hududiy, respublika va xalqaro sport musobaqalarida, jumladan, Olimpiya va boshqa yirik sport o'yinlarida** mamlakat sharafigini munosib himoya qila oladigan terma jamoa va zaxirasini shakllantirish. sportchilarni tayyorlashning ilg'or metodlarini o'quv-trenirovka jarayoniga joriy etish hamda Jismoniy tarbiya-sport harakatini va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

O'zbekiston Respublikasi va uning hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri) sport terma jamoalari barcha yosh va jins toifalari bo'yicha oliy maqomga ega.

Sport terma jamoalari faqat Sport vazirligi tomonidan tasdiqlangan **sport turlari reyestriga kiritilgan turlar bo'yicha** shakllantiriladi.



Respublika sport terma jamoalari va zaxiralari — **Sport vazirligi, sport federatsiyalari (uyushmalari), respublika markazlari hamda Milliy paralimpiya qo'mitasi tavsiyanomasiga** asosan shakllantiriladi.



Hududiy terma jamoalar — **tegishli hududiy boshqarmalar, federatsiyalar va Milliy paralimpiya qo'mitasi hududiy bo'linmalari** tomonidan tuziladi.



Jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari jamoalari — **o'z ma'muriyati tomonidan** tasdiqlanadi.



Texnik va amaliy sport turlari bo'yicha terma jamoalar — **"Vatanparvar" tashkiloti tomonidan** tasdiqlanadi.

SPORT TERMA JAMOALARI UCHUN SHART-SHAROITLARNI TASHKIL ETISH

Terma jamoasi a'zolari o'quv-mashg'ulot yig'inlari va musobaqalarda ishtirok etish davrida quyidagi huquqlarga ega:



Turar joy, ovqat, kiyim-bosh, sport formasi bilan ta'minlanish



Davlat va hududiy sport inshootlaridan foydalanish;



Ilmiy va tibbiy-texnik yutuqlardan foydalanish;

Sportchilar quyidagilarga majbur:



Yirik xalqaro va milliy musobaqalarda ishtirok etib, mamlakat sharafigini munosib himoya qilish;



Sport mahoratini oshirish, axloqiy va ma'naviy fazilatlarini namoyon etish;



tayyorgarlik va musobaqa rejasini to'liq bajarish;



O'ziga, jamoaga, trenerlarga va sport muhitiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;



Sport etikasi, antidoping, gigiyena va jamoat tartibiga rioya qilish.



Sport terma jamoalari **respublikada va xorijda o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etadi**. Bu ishtirok belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.



Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari:

- ✓ kalendar rejalar,
- ✓ sportchilarni tayyorlash;
- ✓ individual tayyorgarlik rejasi,
- ✓ tadbir reglamentlariga muvofiq tashkil etiladi.



Doping qoidalariga buzilgan taqdirda kontrakt bekor qilinadi.

Terma jamoa a'zolari va ularning mansub tashkilotlariga tadbir to'g'risida **kamida 15 kun oldin yozma xabarnoma** yuborilishi shart



SPORT TERMA JAMOALARI A'ZOLARINING NATIJALARINI HISOBGA OLISH VA ULARNI RAG'BATLANTIRISH

BU MUHIM!

Sportchilar (terma jamoa a'zolari)ning hududiy va respublika musobaqalari va ommaviy sport tadbirlaridagi yutuqlari g'alaba,sovrinli o'rin, rekordlar) bo'yicha olingan ochkolar:

- ✔ **ular mansub bo'lgan tashkilotlar hisobiga;**
- ✔ **natijalarda esa ro'yxatdan o'tgan hudud hisobiga yoziladi.**

Xalqaro sport tashkilotlari rasmiy tan olingan hududiy musobaqalarda yutuqlar ham ochkolar ko'rinishida qayd etiladi.

Parallel ochkolar quyidagi hollarda ham hisobga olinadi:

- *sportchi boshqa tashkilotga o'tganda;*
- *boshqa hududdagi ta'lim muassasasida o'qiyotgan bo'lsa;*
- *harbiy xizmat davrida qatnashgan musobaqalarda.*

ILOVALAR

Sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga kiritiladigan sportchilarning Jahon va Osiyo chempionatlaridagi eng ko'p sonli sportchilar tarkibiga ko'ra belgilanadigan cheklangan soni

1. Erkaklar, ayollar:

a) asosiy tarkib:

sportning jamoaviy o'yin turlari (sport turlari) - 1,5 ta tarkib;
tennis, stol tennis, badminton, sport yakka kurashi (shu jumladan og'ir atletika) – 2 ta tarkib;

sportning boshqa turlari – 2 ta tarkib;

b) stajorlar tarkibi (zaxira):

sportning jamoaviy o'yin turlari (sport turlari) - 1 ta tarkib;
tennis, stol tennis, badminton, sport yakka kurashi (shu jumladan og'ir atletika) – 2 ta tarkib;

sportning boshqa turlari – 1 ta tarkib.

2. Bolalar, o'smirlar, qizlar:

a) asosiy tarkib:

sportning jamoaviy o'yin turlari (sport turlari) - 2 ta tarkib;
tennis, stol tennis, badminton, sport yakka kurashi (shu jumladan og'ir atletika) – 2 ta tarkib;

sportning boshqa turlari – 2 ta tarkib;

b) stajorlar tarkibi (zaxira):

tennis, stol tennis, badminton, sport yakka kurashi (shu jumladan og'ir atletika) – 2 ta tarkib;

sportning boshqa turlari – 1 ta tarkib.

[illegible]